

INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISHNING ASOSIY MANBALARI

Meliyeva Nargiza

DTPI o'qituvchisi

Bahriddinova Marjona Otabek qizi

5-MM-21 guruhi talabasi

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

Annotatsiya: *Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiya salohiyatini va uni rivojlantirishga katta ahamiyat berilyapti. Bundan tashqari investitsiyalrni jalb qilish va iqtisodiy sohalarni rivojlantirish nafaqat Davlatimizning balkim barcha tadbirkorlarning ham maqsadiga aylangan desak xato bo'lmaydi. Buning uchun biz avvalambor kelajak avlodga iqtisodiy bilimlar ayniqsa aynan investitsiyaning Davlatimiz Moliyasida qanchalar ahamiyatli ekanligi haqida chuqur bilim va ko'nikma berishimiz darkor.*

Kalitso'zlar: *Investitsiya salohiyati, Moliya, Moliyaviy portfel,aksiya, obligatsiya,Qimmatli qog'ozlar, real investitsiyalar,byudjet, lizing, ipoteka, XyuS,Operatsion, korporativ, Venchur, Moliyaviy Menejment,*

Аннотация: *Сегодня инвестиционному потенциалу и его развитию в нашей стране придается большое значение, кроме того, можно с уверенностью сказать, что привлечение инвестиций и развитие отраслей экономики стало целью не только нашей страны, но и всех предпринимателей. Для этого, в первую очередь, нам необходимо дать подрастающему поколению глубокие знания и навыки о том, насколько важны экономические знания, особенно инвестиции, в финансах нашего государства.*

Ключевые слова: *Инвестиционный потенциал, Финансы, Финансовый портфель, акция, облигация, Ценные бумаги, реальные вложения, бюджет, лизинг, ипотека, ХюС, Оперативный, корпоративный, Венчурный, Финансовый менеджмент*

Annotation: *Today, great importance is attached to investment potential and its development in our country. In addition, it is safe to say that attracting investments and developing economic sectors has become the goal not only of our country, but also of all entrepreneurs. For this, first of all, we need to give in-depth knowledge and skills to the next generation about how important economic knowledge is, especially investment, in the Finance of our State.*

Keywords: *Investment potential, Finance, Financial portfolio, share, bond, Stocks, real investments, budget, leasing, mortgage, HyuS, Operational, corporate, Venture, Financial Management*

Iqtisodiy va moliyaviy sohani yaxshi o'rganib va unda bo'layotgan jarayonlarni tahlil qila olishimiz uchun, avvalo investitsiya o'zi nima? degan savolga javob olishimiz kerak. Investitsiya (lotincha: investio — „o'rash“) — iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo'yish). Investitsiya bu sodda qilib tshuntiradigan bo'lsak, Biron bir sohani rivojlantirish uchun unga sarmoya kiritish ya'ni pul tikish. Va o'sha sohadan yoki tadbirkorlik faoliyatidan kelajakda ko'riladigan daromadga sherik bo'lishdir.

Investitsiyani turlari ko'p. Misol uchun: Davlat investitsiyalari, Chet el investitsiyalari, Xususiy investitsiyalar.

Davlat investitsiyalariga davlat byudjeti va moliya manbalari hisobidan kiritiladigan investitsiyalar kiradi. Chet el investitsiyalari- xorijiy davlatlar, banklar, kompaniyalar, tadbirkorlar tomonidan kiritiladi. Xususiy investitsiyalar korporativ xo'jalik va tashkilotlar, fuqarolar hamda shaxsiy va jalb qilingan mablag'lar hisobidan qo'yiladi.

Moliyaviy (portfel) investitsiya — aksiya, obligatsiya va b. qimmatli qog'ozlarni sotib olishga qo'yiladigan investitsiya, real investitsiya — moddiy ishlab chiqarish (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va b.) sohasiga, moddiy-ashyoviy faoliyat turlariga uzoq, muddatli mablag'lar qo'yish shakllarida amalga oshiriladi.

Jahon tajribasida investitsiyani moliyalashtirish turli usul va shakllarda, shu jumladan, korxonalarni aksiyadorlashtirish va aksiyalarni joylashtirish, byudjet mablag'lari, bank kreditlari, lizing, bevosita chet el investitsiyalari, ipoteka, byudjetdan tashqari maxsus fondlar, amortizatsiya va xo'jalik yuritish sub'yektlarining boshqa mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Investitsion hamkorlik umumkjahon va milliy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Yildan yilga butunjahon bo'yicha investitsiya hajmi oshib bormoqda. 1980 yillarda jahon bo'yicha investitsiya 450 ming \$ni tashkil qilgan bolsa, bu ko'rsatgicha 1990 yilga kelib 2 trillion \$ ga yetgan.

O'zbekiston Respublikasida yangi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida investitsiyalardan samarali foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1996- yildan beri har yili buyudjetdan va byudejtdan tashqari fondlardan tushadigan mablag'lar, chet el investitsiyalari, va hukumat kafolati bilan olingan kreditlar hisobiga aniq qurilish dasturlarini qabul qilib keladi. Respublika iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag'lari, chet el investitsiyalari, korxonalarining o'z mablag'lari, va aholi jamg'armalari qatnashmoqda.

2000-yilda moliyalashtirishning jami manbalari hisobidan mamlakat iqtisodiyotiga salkam 700 milliard so'm, shu jumladan, 810 million AQSH dollari investitsiyalandi. Uning 30,3 % ni respublika byudjeti, 39,1 % ni korxonalar va aholi mablag'lari, 7,5 % ni banklar kreditlari va b. qarz mablag'lar, 21,7 % ini chet el investitsiyalari va kreditlari, 1,4 % ni byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari tashkil qiladi. Respublikada investitsiya faoliyatining huquqiy bazasini yaratishda „Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar

faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1995-yil 5-may), „Investitsiya faoliyati to'g'risida“ (1998-yil 12-dekabr), „Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida“ (1998-yil 30-aprel), „Chet el investitsiyalari to'g'risida“ (1998-yil 30-aprel), „Lizing to'g'risida“ (1999-yil 14-aprel), „Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida“ (2001-yil 30-avgust) qonunlarining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Investitsiya faoliyatida investorlar har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti bilan bog'liq bo'lgan ko'pdan-ko'p xatarlarga duch keladilar. Shu sababli investitsiyani, ayniqsa, chet el investitsiyalarini su-g'urta qilish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy va moliyaviy vaziyatni sog'lomlashtirish uchun jamg'armalarning ichki kapital qo'yilmalar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sifatida real investitsiyalarga aylantirilishini hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlash muhim hisoblanadi. Xalqaro amaliyotni o'rganish shundan dalolat beradiki, investitsion loyihalarni moliyaviy tahlil qilish sohasida ularni realizatsiya qilishning maqsadga muvofiqligini asoslash, ekspertizalar o'tkazishning roli o'sib borayapti. Bu muammoni hal etish xalqaro andazalarining mujassamlashtirilgan shakllari YuNIDO metodikasida o'z aksini topgan. Biroq har bir mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari bu metodikada mavjud bo'lgan an'anaviy yondashuvlardan to'g'ridan to'g'ri nusxa olishga imkon bermaydi va shuning uchun ham ularni har bir mamlakatning xo'jalik sharoitlariga moslashtirish kerak. Bunda joylashtiriladigan mablag'larning qoplanishi va avanslashtirilgan kapitalga investor tomonidan talab qilinadigan daromad normasini olish bo'yicha investitsion takliflarni sifati jihatidan ekspertiza qilish muhimdir. Ana shu yo'nalishda investitsion loyihalarni texnik-iqtisodiy jihatidan asoslash, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli va uning raqobatbardoshligi, shuningdek vakolatli bankning kafolatini xarakterlaydigan tegishli ekspert xulosalariga baho berishning ahamiyati ortadi.

Xorijiy firmalar bilan hamkorlikdagi investitsion loyihalarni o'zlashtirish davrida birinchi bosqichda foiz va mamlakat banklari tomonidan operatsion xarajatlar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi. Qaytarishda esa (to'liq o'zlashtirilganidan so'ng) qarzning asosiy summasi (xorijiy bankning grafigiga muvofiq ravishda) o'tkaziladi va foizlar bo'yicha to'lovlar to'lanadi. Taqdim etilgan takliflarni realizatsiya qilish mexanizmi, bir tomondan, xorijiy investitsion kreditlarni oluvchilarning tarkibini optimallashtirishga xizmat qiladi va ikkinchi tomondan esa, ulardan maqsadli foydalanish ustidan ta'sirchan nazorat bo'lishi ta'rinlaydi. Investitsiyalashtirishning natijaliligini oshirish uchun investitsion loyihalarni, shu jumladan xorijiy kredit liniyalariga qo'shish uchun ham, tanlab olish tartibi tartibga keltirilmog'i lozim. XYuS va tashkilotlarning arizalarini ularning asoslanganligi bo'yicha xulosalar uchun tarmoq, korporativ va mintaqaviy darajalarda qayta ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Investitsion loyihani texnik-iqtisodiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy jihatdan asoslashda ob'ektiv moliyaviy tahlil muhim ahamiyatga ega. Loyihani ishlab chiqarish

jarayoni g'oyaning paydo bo'lgan vaqtdan XYuS ishga tushirilgunga va quvvatlar o'zlashtirilgunga qadar uch bosqichdan iborat bo'ladi:

- tayyorgarlik ko'rish bosqichi;
- investitsion bosqich;
- operatsion bosqich.

Yuqoridagi bosqichlarning har biri bir necha quyi bosqichlardan iborat bo'lib, ularda turli-tuman tadqiqot, konsultatsion, texnik va sanoat ishlari amalga oshiriladi, loyiha siklining har bir bosqichi esa o'zaro bir-biri bilan bog'langandir. Loyiha siklining bosqichlari bo'yicha kapital xarajatlarni taxminiy taqsimlanishi dastlabki (tayyorgarlik ko'rish) va investitsion bosqichlarni o'z ichiga oladi. Loyihalarni moliyalashtirishning ikki asosiy manbalari mavjud:

- o'z kapitali;
- kredit.

O'z korporativ kapitalini shakllantirish aksiyalarga (imtiyozli va oddiy) ochiq yozilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Qarziy mablag'lar esa qisqa, o'rta va uzoq muddatli bank kreditlari shaklida, shuningdek turli qarziy majburiyatlarni emissiya qilish yo'li bilan jalb qilinadi. Moliyalashtirishning bunday tiplari o'rtasidagi prinsipial farq qarzdorning kreditorlar oldidagi birinchi darajali javobgarligidadir.

O'z va qarz mablag'lar o'rtasida ma'lum bir balansga rioya etmoq zarur. Kreditor nuqtai nazaridan qarz kapitalning yuqori salmog'i qarz oluvchi (qarzdor)ning risklilik darajasini oshiradi, chunki unda xarajatlarning umumiy tarkibiy tuzilmasida foiz to'lovlarining salmog'i ortadi va demak, foyda pasayadi. Qarziy moliyalashtirishning ko'rinishlaridan biri lizingdir. Agar moliyalashtirish shartlari xorijda mahalliy shartlardan keskin farq qiladigan bo'lsa, tizing asbob-uskunalarni sotib olishning ustuvor metodi hisoblanadi

Moliyalashtirish shakllarining turli-tumanligi o'zgarib turishi mumkin. Biroq ular tushumlar va asosiy xarajatlarning ta'minlanganligi uchun yetarli bo'lishi kerak. Ko'p hollarda loyihani ishlab chiquvchilar investorlar va kreditorlarga uningjozibadorligini ta'minlash maqsadida loyihaning qiymatini pasaytirishga harakat qiladilar.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish usullari:

- O'z-o'zini moliyalashtirish
- Aksionerlashtirish
- Kreditlash
- Byudjetdan Moliyalashtirish
- Lizing orqali Moliyalashtirish
- Venchurli Moliyalashtirish
- Loyihaviy Moliyalashtirish
- Qarz mablag'lari orqali
- Jalb qilingan mablag'lar
- Chet el investitsiyalari va kreditlari

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, investitsion loyihalarni moliyalashtirish o'z mablag'lari va qarz mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan ekan. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qancha e'tibor kuchaysa iqtisodiy erkinligimiz shuncha kuchayadi. Ayniqsa chet eldan investitsiyalarni jalb qilish mamlakatimizda ishlab chiqarish sohalari, bozor iqtisodiyoti va mexanizmini, qurilish va sanoatni rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Loyihalarni moliyalashtirish bu zamonaviy texnika-texnologiyalarni modernizatsiya qilish va qayta yangilash, xalq iste'moli uchun yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish, shuningdek respublikaning eksport salohiyatini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyatiga xizmat ko'rsatish maqsadida Respublikaga jalb qilinadigan texnologiyalarga yo'naltiriladigan yirik investitsiya loyihalari va dasturlarni moliyalashtirish hisoblanadi. Shuning uchun ham yosh avlodni Moliyaviy va iqtisodiy bilim va ko'nikmalari qancha yaxshi bo'lsa, kelajakda bu kabi investitsion loyihalarni moliyalashtirish shuncha ko'p bo'ladi. Buning uchun esa bu kabi ma'lumotlarni sifatli va ishonchli qilib ommaga taqdim qilishimiz va yoshlarni kerakli axborot manbalari bilan ta'minlashimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.V. VAHOBOV, T.S. MALIKOV "Moliya" Toshkent-2012
2. wikipedia.org
3. M.S. QOSIMOV, G.Ya. MUXAMEDJANOVA "Investitsiya Loyihalari Tahlili" Toshkent-2011
4. A.G. IBRAGIMOV, Z.R. MADAMINOVA, M.E. RAXMATALIYEV "Moliyaviy Menejment" Toshkent-2016
5. G'.H. HUSANOV, M.L. TURSUNXODJAYEV, A.R. BAK3YEV "Moliyaviy Menejment" Toshkent-2006
6. Samariddin ELMIRZAYEV "Korporativ Moliya" Toshkent-2015
7. T. Malikov iqtisodiyot fanlari doktori, professor O. Olimjonov iqtisodiyot fanlari doktori, professor "Moliya" Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2019
8. T.S. Malikov "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Moliyasi" Toshkent "IQTISOD-MOLIYA" 2010
9. «Бизнес ва тадбиркорлик асослари» курси бўйича амалий қўлланма Toshkent-2009
10. <https://fayllar.org/loyihalarni-moliyalashtirish>